Dunyoning eng salohiyatli top 2% olimlari ro’yxati e’lon qilindi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Matematika instituti direktor o’rinbosari, professor O’tkir Roziqov ELSEVIER nashriyoti va STENDFORD universiteti tomonidan (https://elsevier.digitalcommonsdata.com/datasets/btchxktzyw/3) dunyoning TOP 2% olimlari ro’yxatidan joy oldi. Ushbu ro’yxatda O’.Roziqov Matematika-statistika sohasi bo’yicha 2340-o’rinda qayd etilgan.

Chop etilgan ma’lumotlar bazasida iqtiboslar soni, maqolalarga havolalar, h-index bo’yicha standartlashtirilgan ma’lumotlar taqdim etilgan bo’lib, unda dunyoning TOP 2 % olimlari ro’yxati keltirilgan.

O’tkir Roziqov — matematik analiz, algebra va ehtimollar nazariyasining zamonaviy usullarini rivojlantirishda yuksak natijalarga erishgan matematik-olim.